

# PEDAGOGIK MAHORAT

**5**  
**2021**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**5-son (2021-yil, oktabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, № 5

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

#### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

#### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N.Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

Muyassar MAHMUDOVA. Oilaviy ziddiyatlarni boshqarish va bartaraf etish .....	150
Azamat NAZAROV. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning psixologik modellari va texnologiyalari .....	153
Xo'jageldi ALIMOV. Tasavvuf ahliga va asarlariga to'laqonli yondashuv .....	157
Nargiza G'AYIBOVA. O'smirning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanishida sibling maqomining o'rni .....	159
Alisher JABBOR. Diniy ma'lumotlarni tushunish xususiyatlari shaxs kognitiv differentsiya mezonini sifatida .....	162
Mushtariy ISAYEVA. Oila funksiyalarining diniy-psixologik aspektlari .....	165
Sarvar QAXXOROV. Diniy mutaassiblik muammosining psixologiyada o'rganilganlik darajasi .....	169
M. AKRAMOV. Ekologik ong shakllanishini o'rganishning psixologik masalalari .....	171
Gulbarno SODIQOVA. O'smirlar mustaqil qaror qabul qilishida diniy-psixologik omillarining amaliy tadqiqi .....	174
Dildoraxon ULMASOVA. Emotsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni boshqarishda emotsional intellektning roli .....	178
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>181</b>
Mohira TURDIYEVA. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli .....	181
Zulfizar YUSUPOVA, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvida jismoniy tarbiyaning ta'siri .....	185
Махфуза САДУЛЛОЕВА. Семантический субъект предложения .....	188
<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH .....</b>	<b>191</b>
R. YO'LDOSHEV, L. MIRJALOLOVA. Ona tilidan ayrim mashqlarni bajarishning interaktiv usullari ...	191
Roza NIYOZMETOVA. Asar qahramonlari insoniy fazilatlarini o'rganish vositasi sifatida .....	194
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH .....</b>	<b>197</b>
Ubaydullo ARABOV, Hamza ESHONQULOV. Katta ma'lumotlar (big data)ni tahlil qilish usullari .....	197
I. Khushmurodova. Modern information resources in the electronic library .....	202
Sanjar MARDOV. Qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini grafik dasturlar asosida rivojlantirishning metodikasi .....	206
Qavmiddin OMONOV. Geometrik girixlar va sirtlarning zamonaviy grafik dasturlar yordamida bajarib ta'lim jarayonida qo'llash .....	213
Раъно САЛОМОВА, Машхура УСМАНОВА. Развитие способностей учеников по системе обучения Маманазара Эргашевича Жумаева .....	216
Sayfulla NAZAROV, G'ayrat SHIRINOV, Sitorabonu JO'RAQULOVA. Kimyo darslarida interfaol jadvallardan foydalanish .....	220
Нодира АШУРОВА, Уткир ХАЗРАТОВ. Эффективность применения симуляционного обучения в медицинской практике студентов медицинских высших учебных заведений .....	224
Zarina MURODOVA, Firuza MURADOVA. Intellektual salohiyatga yo'naltirilgan topshiriq va masalalarni ishlab chiqish mexanizmi .....	228
G.I.SAYFULLAYEVA, S.X. MIRZAQANDOVA. Astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonini takomillashtirish orqali bo'lajak astronomiya o'qituvchilarining eksperimental kompetentligini rivojlantirish .....	235
<b>TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI .....</b>	<b>238</b>
Qobil ABDULLAYEV, Manzura YULDASHEVA. "Avesto"dagi "Ashah vahishta" hamda "Yasa ahu vayru" mantrallari mazmuni va musiqiy ohanglari talqini .....	238
Maxmatmurod SHOMIRZAYEV, Kaxraman YULDASHOV. Milliy tarbiyada kashtachilikning o'rni .....	242
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT .....</b>	<b>246</b>
Jahon AXMEDOV. Sport umuminsoniy qadriyat hamda tarbiya vositasi sifatida .....	246
Rajab XALIMOV. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari .....	251
Akram ABDULAXATOV, Farhod QULBULOV. Kurashchilar musobaqa faoliyatida: hujum, himoya, qarshi hujum va ogohlantirishlar .....	255
<b>QUTLOV .....</b>	<b>258</b>
Baqo UMAROV, O'ktam MARDONOV. Akademik N.A. Parpiyevning O'zbekistonda yaratgan koordinatsion birikmalar kimyosi ilmiy maktabi va uning istiqbollari .....	258
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari .....	267

**Sayfulla NAZAROV**  
Buxoro davlat universiteti  
umumiy va noorganik  
kimyo kafedrası dotsenti

**G'ayrat SHIRINOV**  
Buxoro davlat universiteti  
umumiy va noorganik kimyo  
kafedrası katta o'qituvchisi

**Sitorabonu JO'RAQULOVA**  
Buxoro davlat universiteti  
kimyo mutaxassisligi 2-bosqich  
magistranti

## KIMYO DARSLARIDA INTERFAOL JADVALLARDAN FOYDALANISH

*Ushbu maqolada kimyo darslarida interfaol jadvallarning o'rni, dars jarayonida qo'llash usullari keltirilgan. Mavzularning xilma-xilligi, materiallarning jadvali tuzilish shakli, tasviriy vositalarning rang-barangligi evaziga ta'lim sifatini ortishi ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** jadval, atom tarkibi, yadro reaksiyalari, anorganik birikma, oddiy va murakkab modda.

*В данной статье приведены роль и методы использования интерактивных таблиц в процессе учебы. Показано, что за счет многообразия тем, табличных форм строения материалов, разнообразности наглядных средств, повышается качество обучения.*

**Ключевые слова:** таблица, атомный состав, ядерные реакции, неорганическое соединение, простое и сложное вещество.

*This article describes the role and methods of using interactive tables in the learning process. It is shown that due to the variety of topics, tabular forms of the structure of materials, a variety of visual aids, the quality of education increases.*

**Key words:** table, atomic composition, nuclear reactions, inorganic compound, simple and complex substance.

**Kirish.** Har qanday o'quv jarayonining ajralmas qismini jadvallar tashkil etadi. Ular yordamida o'qituvchi dars materialining bir qismini namoyish etadi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qiladi. Har bir o'qituvchi darslarda jadvallar qo'llanilishining ko'pgina variantlari mavjud ekanligidan xabardor bo'lishi kerak.

**Asosiy qism.** Butun hayotimiz davomida biz har kuni jadvallar bilan to'qnashamiz. Tabiiyki, yoshlikda "Ko'paytirish jadvali"ni yodlaganmiz, so'ngra natijalar ro'yxati, jadvallar ko'rinishidagi kuzatuvlar qulayligini ko'rganmiz, hozirgi kunda esa elektron jadvallar ommalashib bormoqda, har birimiz MS Excel jadval muharriri bilan tanishmiz.

Biz jadvalning o'zi nima degan savolga javob topishga harakat qildik. Buning uchun turli adabiyot manbalariga murojaat etdik, ularni o'qib o'rgandik [1].

S.M.Ojegov fikriga muvofiq, jadval – bu grafalar bo'yicha joylashtirilgan biror nima haqidagi ma'lumotdir. Pedagogikada jadvallar ta'rifiga boshqacha yondashuv qabul qilingan. Birinchi navbatda, jadvallar ko'rgazmalilik prinsiplarini amalga oshiruvchi vositalarga kiritilgan. Ko'rgazmalilik prinsipi – didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, o'qitish samaradorligini o'quv materialini qabul qilish va qayta ishlashga sezgi organlarining maqsadli jalb etilishiga bog'liq ekanligini bildiradi.

O'quv jadvallari – rasmlar bilan bezatilgan o'quv predmetining bo'lim va mavzulari, sonlar, matnlar yoki grafiklarni saqlovchi ko'rgazmali qo'llanmalardir. Ular illyustrativ, grafik, sonli, matnli va aralash jadvallarga bo'linadi.


Ilyustrativ jadvallar ayrim rasmlar, suratlar qatoridan iborat bo'lib, qisqa tushuntiruvchi matnni o'z ichiga oladi. Ular yordamida qandaydir predmet, hodisa yoki jarayonning bosqichli rivojlanishi, predmet va hodisalarning o'zaro bog'liqligi, qandaydir alomat yoki prinsip bo'yicha ularning guruhlanishi ko'rsatiladi.

### 1-jadval. Kimyoning asosiy tushunchalari

Tushuncha	Ta'rif
Kimyoviy element	Yadroda musbat zaryadlar soni bir xil bo'lgan atomlarning muayyan turi
Atom	Musbat zaryadlangan atom yadrosi bilan manfiy zaryadlangan elektronlardan tarkib topgan elektroneytral zarracha
Molekula	Moddaning kimyoviy xossalriga ega bo'lgan eng kichik zarracha
Mol	Moddaning 12 g uglerod izotopi $^{12}\text{C}$ da nechta atom bo'lsa, tarkibida shuncha struktura birliklar bo'ladigan miqdori
Avogadro soni	Istalgan moddaning bir molidagi struktura birliklar soni: $N_A = 6,02204 \cdot 10^{23}$
Nisbiy atom massa (Ar)	Elementning tabiiy izotoplar tarkibidagi atomi o'rtacha massasining uglerod $^{12}\text{C}$ atomi massasining 1/12 qismiga nisbatiga teng kattalik

Nisbiy molekulyar massa (Mr)	Moddaning tabiiy izotoplari tarkibidagi molekulasi o'rtacha massasining uglerod atomi <sup>12</sup> C massasining 1/12 qismiga nisbatiga teng qiymat
------------------------------	--

Grafik jadvallar sxemalar, chizmalar, sxematik rasmlar, diagrammalarni saqlaydi va ular matnli yoki sonli materiallar bilan to'ldiriladi (masalan, "Anorganik birikmalarning asosiy sinflari orasidagi bog'lanish").



**1-sxema. Anorganik birikmalarning asosiy sinflari orasidagi bog'lanish**

Sonli jadvallar asosan sonli materialdan tashkil topgan bo'lib, ba'zan kichik rasmlar yoki yordamchi grafik belgilar (strelkalar, yoylar, chiziqlar) bilan bezatiladi (masalan, Yadro reaksiyalarining asosiy turlari).

**2-jadval. Yadro reaksiyalarining asosiy turlari**

Radioaktiv o'zgarishlarning asosiy turlari	Reaksiya sxemalari va misollar
1. b-yemirilish	$\begin{matrix} A \\ Z \end{matrix} E \rightarrow \begin{matrix} A-4 \\ Z-2 \end{matrix} E + \alpha;$ ${}_{84}^{210}\text{Po} \rightarrow {}_{82}^{206}\text{Pb} + {}_2^4\text{He} \text{ (b - zarracha)}$
2. v-yemirilish: ${}^0_{-1}\beta$ -yemirilish (yoki elektronli yemirilish)	${}^1_0n \rightarrow {}^1_1p + \beta^- + \nu^- \text{ (antineytrino);}$ $\begin{matrix} A \\ Z \end{matrix} E \rightarrow \begin{matrix} A \\ Z+1 \end{matrix} E + \beta^- + \nu^-;$ ${}^{17}_7\text{N} \rightarrow {}^{17}_8\text{O} + \beta^- + \nu^-$
b) ${}^0_{+1}\beta$ -yemirilish (yoki pozitronli yemirilish)	${}^1_1p \rightarrow {}^1_0n + \beta^+ + \nu \text{ (neytrino);}$ $\begin{matrix} A \\ Z \end{matrix} E \rightarrow \begin{matrix} A \\ Z-1 \end{matrix} E + \beta^+ + \nu;$ ${}^{11}_6\text{C} \rightarrow {}^{11}_5\text{B} + \beta^+ + \nu$
c) elektronning yadroga qulashi	${}^1_1p + e^- \rightarrow {}^1_0n + \nu;$ $\begin{matrix} A \\ Z \end{matrix} E + e^- \rightarrow \begin{matrix} A \\ Z-1 \end{matrix} E + \nu;$ ${}^{51}_{24}\text{Cr} + e^- \rightarrow {}^{51}_{23}\text{V} + \nu$
3. Yadroning o'z-o'zidan bo'linishi	${}^{236}_{92}\text{U} \rightarrow {}^{137}_{53}\text{I} + {}^{97}_{39}\text{Y} + 2{}^1_0n$

O'quv jadvallarini asosiy maqsadiga ko'ra, bilim orttiruvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, ma'lumotnoma va mashq qildiruvchi jadvallarga bo'lish mumkin.

Bilim orttiruvchi jadvallar asosan o'quvchida mavjud bilimlarni chuqurlashtiruvchi va to'ldiruvchi



yangi ma'lumotlarni yoki materialni saqlaydi (Atom tarkibiga kiruvchi elementar zarrachalarning asosiy tavsiflari).

**3-jadval. Atom tarkibiga kiruvchi elementar zarrachalarning asosiy tavsiflari**

		Tinch holatdagi massasi		Zaryadi	
		absolyut, kg	nisbiy a.b.m.	elektrik, Kl	nisbiy
Proton	<i>p</i>	$1,673 \cdot 10^{-27}$	1,007276	$1,602 \cdot 10^{-19}$	+1
Neytron	<i>n</i>	$1,675 \cdot 10^{-27}$	1,008665	0	0
Elektron	<i>e</i>	$9,109 \cdot 10^{-31}$	0,000549	$1,602 \cdot 10^{-19}$	-1

Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi jadvallar biror-bir amaliy mashg'ulotni bajarishda o'quvchiga yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Bunday jadvallarda qisqa yo'riqnomalar, tushuntiruvchi rasmlar, chizmalar va boshqalar beriladi.

Ma'lumotnoma jadvallar o'quvchilarga ma'lum bo'lgan va muayyan o'quv ishlarining bajarilishini osonlashtiruvchi ma'lumotlar beradi (masalan, xronologik jadvallar, D.I.Mendeleyevning davriy sistemasi jadvali va boshqalar).

Mashq qildiruvchi jadvallar o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni mustahkamlash uchun yordam beradi.

Jadvallarning tuzilishi turli-tumandir. Misol uchun, sonli va matnli jadvallar uchun materialning kolonkalarda, ustunlarda, vertikal va gorizontal qatorlarda, kataklarda joylanishi xarakterlidir. Materialning bunday joylanish shakli jadvali deb nomlanadi.

Mavzularning xilma-xilligi, materialning jadvali tuzilish shakli, tasviriy vositalarning rang-barangligi evaziga o'quv jadvallari katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo'ladi, o'quv jarayonida keng va samarali qo'llaniladi.

Kimyo o'qitish metodikasiga tayangan holda A.A.Grabeskiy bosma vositalar, ya'ni moddiy modellar orasidan o'quv jadvallarini alohida ajratadi. Maktablarda keng tarqalgan o'quv jadvallar o'zida kimyo fanining asosiy masalalari, kimyoviy ishlab chiqarish, moddalarning inson hayotida ishlatilishi bo'yicha sistemalashtirilgan sonli va boshqa ma'lumotlarni; ma'lumotnoma va instruktiv xususan kimyoviy tajribalarni o'tkazishga oid ma'lumotlarni saqlaydi. Shuningdek, o'quv jadvallari predmet va hodisalar orasidagi bog'liqlikni ko'rgazmali taqdim etish uchun ham xizmat qiladi. Didaktik maqsadi bo'yicha jadvallarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: kimyoning asosiy tushunchalari, qonunlari va nazariyalarini; kimyoviy eksperimentni bajarish malaka va ko'nikmalarini; kimyoviy ishlab chiqarish haqidagi tasavvurlarni shakllantiruvchi jadvallar; masalalarni yechish uchun qo'llaniladigan jadvallar[2].

Jadvallarni o'quvchilarga taqdim etish xarakteri bo'yicha ularni butun sinf bilan bir yil yoki kimyoning to'liq fani davomida (D.I.Mendeleyevning elementlar davriy sistemasi, tuzlarning suvda eruvchanligi jadvali), bir necha oy, hafta yoki bitta dars davomida ishlash uchun qo'llaniladiganlarga bo'lish mumkin.

Barcha jadvallarni ularni qo'llash usuli bo'yicha tarqatma va ko'rgazmalilarga bo'lish mumkin. Tarqatma jadvallar o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash uchun xizmat qiladi. Ko'rgazmali jadvallar butun sinf bilan ishlashda qo'llaniladi.

Maktablarning kimyoga oid o'quv jadvallar bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganilganda, ko'pchilik kimyo kabinetlarida zaruriy jadvallarning to'liq to'plami mavjud emasligini ko'rsatdi va shu sababli o'qituvchilar ko'p hollarda qo'lbola jadvallardan foydalanishga majbur bo'ladilar. Qo'lbola jadvallarning ko'pchiligi tartibga solinmagan, ortiqcha material bilan to'ldirilgan bo'ladi, ko'p miqdordagi yozuvlarni saqlaydi. Bunday jadvallarning ko'pchiligi, garchand o'quv materialini saqlasa ham, ko'rgazmali emas va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi qiyin bo'ladi [3].

Shuni inobatga olib, biz "Kimyo" fanidan mavzular bo'yicha tayyorlangan interfaol jadvallarni havola etamiz.

O'quvchilarning "Kimyo" fanidan bilim olish jarayonida interfaol jadvallardan foydalanish samarasi har bir bob oxirida bilim darajasini o'zgarishini aniqlash yo'li bilan tasdiqlandi (4-jadval).

**4-jadval. O'quvchilarning "Kimyo" fanidan bilim darajasining o'zgarishi**

Sinflar	O'quvchilar soni	Javoblar					
		Dastlabki			Oxirgi		
		TT	TCh	N	TT	TCh	N
Eksperimental	30	10/33,3	12/40,0	8/26,7	13/43,3	15/50,0	2/6,7
Taqqoslash	25	8/32,0	10/40,0	7/28,0	8/32,0	12/48,0	5/20,0

TT-to'g'ri, to'liq javob; TCh-to'g'ri, chala javob; N-noto'g'ri javob.  
Maxrajlarda foiz miqdorlar.

## **#5, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT\*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО\*PEDAGOGICAL SKILL**

Eksperimental sinflarda to‘g‘ri, to‘liq javoblar 10% ga, to‘g‘ri, chala javoblar esa deyarli 10% ga ortgan. Taqqoslash sinflarida bunday ijobiy natijalar tajriba xatosi doirasidan tashqariga chiqmagan.

Kimyo fani bo‘yicha yakuniy attestatsiya natijalari (5-jadval) eksperimental sinflardagi “qoniqarli” va “qoniqarsiz” baholar soni taqqoslash sinflariga nisbatan qariyb 2 marta kamayganligini ko‘rsatadi.

### **5-jadval. Kimyo fanidan yakuniy attestatsiya natijalari**

<b>Sinflar</b>	<b>O‘quvchilar soni</b>	<b>Baholar</b>			
		<b>“a‘lo”</b>	<b>“yaxshi”</b>	<b>“qoniqarli”</b>	<b>“qoniqarsiz”</b>
Eksperimental	93	19/20,4	48/51,6	21/22,6	5/5,4
Taqqoslash	68	11/16,2	20/29,4	30/44,1	7/10,3
Maxrajlarda foiz miqdorlar					

Interfaol jadvallar o‘quvchilarning saviyasini va ularning muhokama qilinayotgan muammolarini yechish jarayonlarida qatnashuvchanligini oshiradi. Bu esa ularning keyingi faoliyatiga ruhiy turtki beradi, ularni harakatlarni aniq bajarishga undaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -T., 2004.
2. Brenda Iasevoli, “Teachers Turn Craze Over Fidget Spinners Into Academic Lessons” Education Week., May 24, 2017.
3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi // Darslik. -T.: “Fan va texnologiya”, 2008. - 288 b.